

IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING EKOLOGIK HOLATI VA AHOLI SALOMATLIGI
MUAMMOLARI

Komilova N.K.,

Maxmudov B.X.

O'zbekiston Milliy universiteti,

O'zbekiston

Аннотация: В условиях изменения климата существует ряд проблем, связанных со здоровьем населения регионов, и их изучение в глобальном и региональном масштабе является сегодня одним из наиболее актуальных вопросов. В данной статье рассматривается экологическая ситуация Республики Каракалпакстан, региональная структура заболеваемости населения, проблемы здравоохранения. Выделены отдельные классы заболеваний (болезни сердца, сосудов, органов дыхания, врожденные пороки развития, инфекционно-паразитарные болезни), обладающие высокой чувствительностью к влиянию экологической обстановки.

Ключевые слова: экологическая проблема, нозогеографическая ситуация, здоровье населения, неклиматические факторы, болезни, аллергия, болезни сердца, сосудов, органов дыхания.

Abstract: In the context of climate change, there are a number of problems related to the health of the population of the regions, and their study on a global and regional scale is one of the most pressing issues today. This article examines the environmental situation in the Republic of Karakalpakstan, the regional structure of morbidity, and health care problems. Separate classes of diseases (diseases of the heart, blood vessels, respiratory organs, congenital malformations, infectious and parasitic diseases) are identified that are highly sensitive to the influence of the environmental situation.

Key words: environmental problem, nosogeographical situation, population health, non-climatic factors, diseases, allergies, diseases of the heart, blood vessels, and respiratory organs.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 79-maqsadida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish"[1] kabi muhim vazifalar belgilangan.

Ma'lumki, mintaqa Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy qismida, aniqrog'i O'zbekistonning shimoli-g'arbida Qoraqum va Qizilqum cho'llari oralig'ida joylashgan. O'lkaning yer yuzasi yassi tekisliklardan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashganligi sababli qishi sovuq, yozi esa issiq va quruq bo'ladi. Qayd etayotganimizdek, o'lka O'zbekistonning eng sovuq hududlaridan biridir. Yanvarning o'rtacha harorati $-4-8^{\circ}\text{C}$ atrofida, eng pastki harorat -33°C gacha pasayib ketadi. Ushbu rayon

respublikamizning eng qurg'ochil hududlaridan biri bo'lib, unda yog'in miqdori yiliga 79-108 mm. ni tashkil qiladi [2].

Aytish o'rinliki, Qoraqalpog'iston Respublikasi chuqur ekologik muammoli hududda joylashgan bo'lib, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq cho'llashish jarayonining kuchayishi, suv resurslarining yetishmasligi, sug'oriladigan yerlarning tanazzuli kabi omillar mintaqa iqtisodiyotiga va aholi turmush darajasiga katta zararli ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifi asosida Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya qabul qilingan. Mazkur hujjatda yuqori texnologiyali innovatsiyalar, ekologik toza, energiya hamda suv tejaydigan texnologiyalarni yaratish va tatbiq qilishga investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoit yaratish, "yashil iqtisodiyot" tamoyilini keng qo'llash, tuproq degradatsiyasi, cho'llanish hamda ekologik migratsiyaning oldini olish, ekoturizmni rivojlantirish singari dolzarb masalalarga oid chora-tadbirlar qamrab olingan [6].

Orol dengizi taxminan 1959-yildan quriy boshlagan. Bugungi kunga kelib, uning qirg'og'i 200 kilometr narida qolib ketdi. Dengiz tubidagi qurigan yer maydoni 6 million gektarni tashkil etadi. Buning 3,2 million gektari O'zbekiston, qolgani Qozog'iston hududida joylashgan. Orol dengizi tubidan har yili 150 million tonna tuzli chang-to'zon havoga ko'tarilib, 1000 kilometrgacha uchib boradi. Dengizning qurishi natijasida yurtimizda ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri ortib bormoqda. Xususan, ushbu holat qishloq xo'jaligida unumdorlik pasayishiga, insonlar sog'lig'i yomonlashishiga olib keladi. 2018-yil 27-may kuni Orol dengizining qurigan tubidan tuzli bo'ron ko'tarilib, O'zbekistonning katta hududini tuz bilan qopladi. Shuningdek, bu bo'ron Turkmanistonning ham bir qancha hududlarini bosdi. Mazkur yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Orol dengizi hududini ekologik sog'lomlashtirish va mahalliy aholining hayot tarzini yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturga asosan, so'nggi yilda jami 1,2 million gektar yer yashil qoplamaga aylantirildi. Bu ish har yili davom ettirilyapti.

Tahlillar olib borilgan 2015-2024-yillarda mintaqa aholisining soni 1763,1 mingdan 2002,7 ming kishiga yoki 113,6 foizga o'sdi. Bu davr mobaynida qishloq aholisi o'sish sur'atlarining (115,1%) shahar aholisiga nisbatan (112,0%) ancha jadal ekanligi kuzatildi. Buning natijasida 10 yil ichida urbanizatsiya darajasi 49,5 foizdan 48,8 foizga qisqargan. Mazkur yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni muntazam kamayib bormoqda. Agar 2015-yilda mehnat resurslari salmog'i mintaqa aholisining 60,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 58,6 foizgacha qisqardi.

2015-2023-yillarda mintaqa YaHMining O'zbekiston Respublikasi YaIMidagi ulushi 3,4 foizdan 3,6 foizga, sanoat esa 2,4 foizdan 2,7 foizga oshgan. Bu holat Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti jadal o'sayotganidan darak beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mintaqada ijtimoiy infratuzilma nisbatan sekin rivojlanmoqda.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Aholining ichimlik suv, kasalxona o'rinlari, ambulatoriya-poliklinika muassasalari bilan ta'minlanganligi respublika darajasidan past. Deyarli barcha ijtimoiy ko'rsatkichlar respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past hisoblandi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida hukm surayotgan ekologik holat o'z navbatida ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholi salomatligi bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat ayniqsa iqlim o'zgarishlariga sezgirligi yuqori ayrim turdagi kasallik sinf va turlari bilan bog'liq kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi (1-jadval, 1-rasm).


1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining tibbiy geografik vaziyati bilan bog'liq ayrim ko'rsatkichlar (har 100 ming aholiga)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021
Aholining birlamchi kasallanishi	410,8	467,7	447,7	440,5
Aholining nafas olish a'zolari bilan kasallanishi	108,0	184,7	165,2	158,3
Aholining xavfli o'smalar bilan kasallanishi	66,7	67,8	65,5	71,5

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

JSST ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra - barcha kasalliklarning 23 foizi va barcha turdani xavfli o'sma xastaliklarining 25 foizi atrof-muhit omillariga bog'liq. Respublika aholisi orasida aholining xavfli o'sma kasalliklari bilan bog'liq o'lim va kasalanish holatlari ham keyingi yillarda birmuncha ortgan [3].




1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining ayrim kasallik sinflari bilan bog'liq o'lim ko'rsatkichlari (har 100 ming aholiga). Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

Chunonchi, mazkur kasallik bilan bog'liq kasallanish holatlari 2010-yilda 67,3 nafarni tashkil etgan holda, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 71,5 nafarga yetgan (jadval). Shuningdek, hudud aholisi orasida sil, yuqumli ichak xastaliklari, tug'ma nuqson bilan tug'ilishlar, buyrak va o't qopining surunkali kasalliklari eng ko'p uchraydi. Shuningdek, uzoq yillar davomida mintaqa aholining sil bilan xastalanish

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

holatlari nihoyatda yuqori. 2010-yilda O‘zbekistonda har 100 ming aholiga sil bilan og‘riganlar 61,3 kishini tashkil etgan bo‘lsa, ushbu hududda bu raqam 122,4 kishiga teng bo‘lgan. Qoraol‘zak (241,7), Mo‘ynoq (186,6), Chimboy (258,0) va Taxtakol‘pir (227,8) tumanlarida ko‘rsatkichlar mamlakat darajasidan bir necha bor yuqori bo‘lgan. 2023-yil ma‘lumotlari bo‘yicha ham Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisi orasida mazkur kasallik bilan kasallanish va o‘lim holatlari sezilarli darajada pasaygan. Biroq Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Chimboy tumanlarda ko‘rsatkichlar boshqa tumanlarga nisbatan birmuncha yuqori [3,4].



2-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining ayrim kasallik sinflari bilan kasallanish holatlari. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari 2015-2023-yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining ayrim kasallik sinflari (yuqumli-parazitlar, endokrin, qon va qon hosil qiluvchi a‘zolar, ovqat hazm qilish a‘zolari, siydik-tanosil, nafas olish a‘zolari kasalliklari) bilan kasallanish holatlarida ham dinamik o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi (2-rasm):

Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholining kasallanishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar mintqa ekologik vaziyati fonida shakllangan bo‘lib, bunda ayniqsa keyingi yillarda aholi orasida nafas olish a‘zolari, yuqumli-parazitar, yurak, qon tomir kasalliklari salmog‘ining ortib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Ayni vaqtda tobora chuqurlashib borayotgan iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ta’sirlar ham nozogeografik holatni yanada keskinlashuviga olib kelmoqda-ki bu esa o‘z navbatida yangidan yangi ilmiy tadqiqotlarni, ekologik moslashuv bilan bog‘liq zaruriy chora-tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
2. Комилова Н.К. Ўзбекистон тиббий географик шароитининг худудий таҳлили ва аҳоли саломатлиги муаммолари. География фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Т. 2012. Б.184-185
3. Komilova N.Q. Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar. Monografiya. -Toshkent. «Zebo prints», 2023, 208 бет.
4. Turdimambetov I., Pauditsova E., Madreymov A., Komilova N., Oteuliev M., Kayupov N., Utarbaeva K., Eshimbetova G. Influence of harmful ecological factors on the population of the Republic of Karakalpakstan. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 10, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
6. <https://strategy.uz/index.php?news=1083&lang=uz>